

1907541951 - SON  
**TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'IRISIDA SHARTNOMASI**  
*Yuridik shaxslar (shu jumladan, byudjet tashkilotlari) uchun*

Paxtaobod tuman.

2022 yil 24 Yanvar

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Andijon filiali (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil “30”dekabrda 50-01-08/2157-son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Andijon filiali Paxtaobod telekommunikatsiyalar bog‘lamasasi boshlig‘i O.Kimsanov (keyingi o‘rinlarda – Operator) bir tomondan va Paxtaobod tuman Axborot kutubxona markazi nomidan Ustav (Nizom, ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi Z.Xamraeva (keyingi o‘rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o‘rinlarda birgalikda - tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o‘rinlarda – shartnoma) tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Abonent ushbu shartnomani imzolab:

- Operatorning [WWW.UZTELECOM.UZ](http://WWW.UZTELECOM.UZ) rasmiy veb-saytida e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo‘lgan ommaviy ofertasi (keyingi o‘rinlarda – Oferta) shartlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi to‘g‘risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to‘lovini amalga oshirishi va to‘lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjati Operator Ofertaning shartlarini so‘zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko‘rsatilgan maqsadlarda ushbu shartnomani imzolaganidan so‘ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so‘ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro‘yxati doirasida o‘z tanlovidan kelib chiqib, dastlabki avans to‘lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko‘rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

2.1. Operator ushbu shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

2.2. Abonent ushbu shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

2.3. Tomonlar ushbu shartnoma amal qilish davrida, o‘z huquq va majburiyatlariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash yuzasidan zarur choralarini amalga oshiradilar.

**3. Hisob-kitob va to‘lovlar tartibi**

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko‘rsatilganidan keyin to‘lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.2. Tariflar Abonent bilan shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko‘rsatiladi va ushbu shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig‘imlarni o‘z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to‘lovi birinchi oyda ushbu shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to‘lovi **100 (bir yuz) foiz** miqdorida oldindan to‘lanadi. dastlabki avans to‘lovi oldindan to‘lov bo‘yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo‘yicha) ko‘rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Shartnomaning umumiy summasi ushbu shartnomaning 1-sonli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo‘yicha) muvofiq ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

SHartnomaning umumiy miqdori **810 000 (Sakkiz yuz o‘n ming)** so‘mni tashkil etadi 15% miqdoridagi QQS ni inobatga olgan holda

3.4.1. Mazkur shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o‘rtasida imzolangan qo‘shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to‘lanadi.

3.5. Abonent ushbu shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu shartnomada ko‘rsatilgan Operatorning shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan Operator tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘laydi.

3.6. Agar Abonentning shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko‘rsatish uchun etarli mablag‘ bo‘lmasa yoki mazkur shartnomaning 3.5-bandida ko‘rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo‘yicha to‘lov amalga oshirilmagan bo‘lsa, Operator ushbu shartnoma bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishini to‘xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirmasligiga asos bo‘la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to‘xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to‘lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalarini bilan tartibga solinadi.

3.8. Operator dan bonuslar ko‘rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag‘lar faqat Operator xizmatlari uchun to‘lanishi mumkin va shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to‘lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to‘liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko‘rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent **10 (o‘n) ish kuni** mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo‘yicha o‘z e‘tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo‘yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko‘rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e‘tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to‘lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo‘lganida **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

**4. Tomonlar javobgarligi**

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo‘ladi (tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

**5. Nizolarni hal qilish tartibi**

5.1. Tomonlarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o‘zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o‘zaro kelishuv orqali hal etishning imkoni bo‘lmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqiladi.

## 6. Alohida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralarini ko'radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (engib bo'lmaydigan kuchlar/fors-majior holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

## 7. YAKUNIY qoidalar

7.1. Ushbu shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiladi. Agar, shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, tomonlar (byudjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. Abonent tomonidan ushbu shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu shartnoma, shu jumladan, operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) shartnoma predmeti yuzasidan operator va abonent o'rtasida to'liq shartnomani tashkil etadi.


7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgartirishda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, **10 (o'n) kalendar kun** ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir tomon uchun bitta nusxadan beriladi.

## 8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

OPERATOR:	ABONENT:
<b>"O'zbektelekom" AK Andijon filiali</b> Manzil: Andijon sh., Lermontov k., 12. Bank ma'lumotlari: x/r: 20210000104074838308 STIR: 203366731 MFO: 00401 Bank: ATB "Alokabank" Toshkent filiali Tel: (74) 224-0424, (74) 226-2003 E-mail: andtel@uztelecom.uz	<b>"Paxtaobod tuman Axborot kutubxona markazi"</b> Manzil: Paxtaobod tuman Bank ma'lumotlari: shx/r: 100022860032327082102134001 STIR: 306779268 MFO: 00014; Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shaxri; x/r: 23402000300100001010 STIR: 201122919 Tel: <u>74 242 2421</u> ; E-mail: _____;
Operator nomidan: O.Kimsanov / <u>[Signature]</u>	Abonent nomidan: Z.Xamraeva / <u>[Signature]</u>



*Handwritten signature: [Signature] B. Ucarov*

2022 yil "24" Yanvar  
№ 1907541951 - sonli abonent shartnomasiga  
1-ilova

Ko'rsatiladigan xizmatlar

1. Xizmatlar ro'yxati va xizmatlar uchun tariflar

O'lchovbirligi -Milliy valyuta(so'm)

t/r	Xizmatlarnomi	QQS bilan narxi
1.1	Oylik to'lov internet xizmati uchun Yanvar 2022	270 000,00
1.2	Oylik to'lov internet xizmati uchun Fevral 2022	270 000,00
1.3	Oylik to'lov internet xizmati uchun Mart 2022	270 000,00
	Jami	810 000,00


Jami to'lov miqdori 810 000.00 (Sakkiz yuz o'n ming ) so'm, shu jumladan, QQS 15 % miqdorida.


OPERATOR:  
"O'zbektelekom" AK Andijon filiali Paxtaobod  
telekommunikatsiyalar bog'lamasi

ABONENT:  
Paxtaobod tuman Axborot kutubxona markazi

Operator nomidan:


Abonent nomidan:

Raxbar  /imzo/ O.Kimsanov

Raxbar  /imzo/ Z.Xamraeva

m.o'.

m.o'.





24.01.2022 даги

О'ЗБЕКТЕЛЕКОМ ва Пахтаобод туман ахборот-кутубхона маркази ўртасида 810 000,00 сўм умумий  
суммага тузилган № 1907541951 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб \_\_\_\_\_ 134  
Шахсий ғазна ҳисобварак \_\_\_\_\_  
100022860032327082102134001

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4292200			Жами
Январь	270 000,00			270 000,00
Февраль	270 000,00			270 000,00
Март	270 000,00			270 000,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>810 000,00</b>			<b>810 000,00</b>

Жами 810 000,00 сўм

Саккиз юз ўн минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан \_\_\_\_\_ сўм ёки \_\_\_\_\_% \*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойида тўланиши лозим.


(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_% жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).


Буюртмачи раҳбари



  
(имзо)

Хамраева Зулфияхон Одиловна  
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

  
(имзо)

Мирзаев Бобурбек Дилмуроджон угли  
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.